

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/2025.27.12.IsI/Tar.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI

ELMIRZAYEV FARRUX YO‘LCHIBOYEVICH

“HIZBUT-TAHRIR” UYUSHMASI G‘OYAVIY-AQIDAVIY
MAFKURASINING REAKSION MOHIYATI

24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot

ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

**Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the author's abstract of the dissertation submitted for the
degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Islamic Studies**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по исломоведению**

Elmirzayev Farrux Yo'Ichiboyevich

“Hizbut-tahrir” uyushmasi g'oyaviy-aqidaviy mafkurasining reaksiya mohiyati..... 3

Elmirzayev Farrukh Yulchiboevich

The Reactionary Nature of the Ideological and Doctrinal System of the Hizbut-tahrir organisation..... 21

Элмирзаев Фаррух Йулчибоевич

Реакционная сущность идеологических и доктринальных основ организации “Хизбут-тахрир”..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ 46

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 15/2025.27.12.IsI/Tar.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI

ELMIRZAYEV FARRUX YO‘LCHIBOYEVICH

**“HIZBUT-TAHRIR” UYUSHMASI G‘OYAVIY-AQIDAVIY
MAFKURASINING REAKSION MOHIYATI**

24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Isl96 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iiu.uz) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupova Nigora Jaloliddin qizi
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muhammadsiddiqov Muhammadolim
Muhammatroziq o‘g‘li
siyosiy fanlar doktori, professor

Yusupov Artukbek Adilovich
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/2025.27.12.Isl/Tar.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” -oktabr soat ____ dagi onlayn/offlayn majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 244 94 70, Faks: (99871) 244 00 65, e-mail: info@iiu.uz. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (297-raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 244 00 56; faks: (99871) 244 00 65; e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” -sentabr kunida tarqatildi.

(2026-yil 15-sentabrdagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi)

D.R.Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.A.Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

Z.M.Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tinchlik va barqarorlikka xavf tug'dirayotgan din niqobi ostida faoliyat yurituvchi ekstremistik tashkilotlar global tahdid o'laroq, alohida kuzatuv va tahlilni ham talab qilmoqda. So'nggi yillarda radikallashuv, ekstremizmning kuchayib borishi nafaqat xavfsizlik, balki ijtimoiy ong va diniy qadriyatlarga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, xalifalik tuzumini tiklash va mavjud davlat tuzilmalarini ag'darish g'oyasiga asoslangan "Hizbut-tahrir" (حزب التحرير) tashkiloti o'zining ekstremistik mafkurasi va yashirin targ'ibotlari orqali ijtimoiy barqarorlik hamda diniy birdamlikka tahdid solib, global xavfsizlik muammolarini yanada keskinlashtirmoqda. "Hizbut-tahrir"ning g'oyaviy-aqidaviy asoslari, siyosiy maqsadlari va targ'ibot usullarini barqarorlik hamda ijtimoiy muhitga ta'siri bilan bog'liq holda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ekstremistik g'oyalarning tarqalishi va ularning ijtimoiy-siyosiy ta'siri kuchayib borayotgan sharoitda, mazkur jarayonlarni baholashga ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan "Hizbut-tahrir"ning yoshlar orasida radikal qarashlari targ'iboti, moliyalashtirish mexanizmlari hamda tarixiy ildizlari o'rganilmoqda. Arab ilmiy muhitida: tashkilotning kelib chiqishi, fiqhiy-aqidaviy asoslari va "xalifalik" haqidagi da'volari, G'arb tadqiqotlarida: radikallashuv jarayonlari, kommunikatsiya strategiyalari va media resurslardan foydalanish shakllari, Rossiya va Markaziy Osiyoda tashkilot xavfsizlik hamda huquqiy-tashkiliy nuqtayi nazaridan o'rganilib, uning tuzilmasi, profilaktika choralari o'rganilmoqda. "Hizbut-tahrir" faoliyatining ayrim jihatlari xalqaro ilmiy adabiyotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uning g'oyaviy-aqidaviy qarashlari, tashkiliy tuzilmasi va targ'ibot usullarini o'zaro bog'liq holda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida aholini ekstremistik va radikal g'oyalar ta'siridan asrashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Hizbut-tahrir fitnasidan ogohlantirish", "Xavfsiz kelajak sari: ekstremizmni bartaraf etishda bag'rikenglikning o'rni", "Tafakkur transformatsiyasi: ekstremistik g'oyalarga qarshi kurashda ta'limning o'rni" kabi ilmiy-uslubiy adabiyotlar ana shu maqsadda tayyorlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi tahlikali dunyoda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga islom mohiyatini to'g'ri tushuntirib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"¹. Shundan kelib chiqib, "Hizbut-tahrir" mafkurasida ilgari surilgan da'volarni tahlil qilish, uning reaksiya mohiyatini ochib berish va bunday g'oyalarga qarshi mafkuraviy profilaktika ishlarini ilmiy asosda takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi PF-5542-son "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son

¹ Diniy-ma'rifiy yo'nalishlardagi ishlar sarhisob qilindi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2023-yil 28-aprel. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6237> (murojaat sanasi: 27.08.2026)

“2021–2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma‘rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O‘RQ-489-son “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Uyushmaning g‘oyaviy ildizlari, shakllanish omillari va faoliyat xususiyatlariga oid adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, ushbu masala yuzasidan shakllangan ilmiy qarashlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhni: “Hizbut-tahrir”ning vujudga kelishi, mafkuraviy ildizlari, tashkiliy tuzilmasi va maqsadlariga bag‘ishlangan xorijiy tadqiqotlar tashkil etadi. Xususan, E.Karagiannis, M.Topchi, G.Qilichogli, J.Yetoat hamda H.Karimiyning² izlanishlarida uyushmaning Markaziy Osiyodagi faoliyati va uning mintaqa davlatlariga ta’siri ko‘rib chiqilgan. A.Aktash³ Turkiya va O‘zbekiston misolida uyushma g‘oyalarining tarqalish omillarini qiyosiy asosda tahlil qilgan, A.Pozdnyakov, V.Ranchinskiy va Ye.Yegorov⁴ tadqiqotlarida esa, tashkilotning ichki tuzilishi hamda mafkuraviy shakllanish bosqichlariga e’tibor qaratilgan, Z.Baran uyushmaning kelib chiqishi, yetakchilari, g‘oyaviy asoslari, ayollar va yoshlar orasida olib borilgan targ‘ibot usullarini tahlil etgan, H.Azad esa, uning tarixini va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatini yoritgan. S.Faruqiy⁵ “Hizbut-tahrir”ni xalqaro miqyosdagi global tarmoq sifatida ko‘rsatgan. Shuningdek, Z.Abuza, J.Brendon, B.Farmer, J.Jerman, L.Xatib va S.Svikning⁶ ishlarida tashkilotning xalifalikni

² E.Karagiannis Hizb ut-Tahrir al-Islami: The Challenge of a Non-Violent Radical Islam // Terrorism and Political Violence . 2021; Topchi, M.C. va Kılıçoglu, G. Sovyet Sonrası Dönemde Türkistan’da Radikal Dini Hareketler ve Faaliyetler: Hizb’ut-Tahrir Örneği // Pamukkale Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. 2022.; Javad Etaat, Hasan Karimi Hizbut-tahrir party and its influence in Central Asia. Tehran: Shahid Beheshti University, 2018;

³ Aktaş A. Hizb-ut Tahrir Yapılanması Üzerine Karşılaştırmalı Bir Analiz: Özbekistan ve Türkiye Örneği // Harran Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi -2021. - № 45.

⁴ Поздняков А. Н. Структура и признаки типичных террористических организаций религиозного толка, подлежащих выявлению и документированию органами внутренних дел (на примере “Хизб ут-Тахрир”) // Право и государство: теория и практика. – 2023; Ранчинский В. П. “Хизб ут-Тахрир” (партия освобождения): создание и идеология на этапе становления // Вестник Брянского государственного университета. – 2017; Егоров Е. Н. “Хизб ут-Тахрир” на Западе: идеология и деятельность // Исламоведение. – 2017.

⁵ Zeyno Baran, Fighting the War of Ideas // Foreign Affairs. 2005; Hasan Azad, (Im)Possible Muslims: Hizb ut-Tahrir, the Islamic State, and Modern Muslimness. Columbia, Columbia University press, 2017; Suha Taji-Farouki A Fundamental Quest: Hizb al-Tahrir and the Search for the Islamic Caliphate. London: Grey Seal, 1996.

⁶ Abuza Z. Political Islam and Violence in Indonesia. - Routledge, 2007; Brandon J. Hizb-ut-Tahrir’s Growing Appeal Arab World - 2006; Farmer B. R. Understanding Radikal Islam: Medieval Ideology in the Twenty-first

tiklashga qaratilgan strategiya hamda hokimiyatni egallash mexanizmlari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar uyushmaning siyosiy yoʻnalishi va tashkiliy strategiyasini anglashda muhim oʻrin tutadi, biroq ularning aksariyatida aqidaviy-fiqhiy asoslar bilan amaliy targʻibot mexanizmlari oʻrtasidagi ichki bogʻliqlik yetarli darajada ochib berilmagan.

Ikkinchi guruhga: Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo sharoitida diniy-ekstremistik tuzilmalarning faoliyati, ularning jamiyat barqarorligiga taʼsiri va tarqalish omillariga bagʻishlangan milliy tadqiqotlar kiradi. A.Hasanov, A.Abduvaxitov, B.Babadjanov, Z.Munavvarov, A.Zakurlayev, J.Toshqulov, O.Yusupov, Oʻ.Hasanboyev, D.Raximjonov, A.Karimov, K.Shermuhamedov, Sh.Islamov⁷ kabi tadqiqotchilar tomonidan diniy oqimlarning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarga taʼsiri, shuningdek, mintaqadagi ekstremistik tahdidlar tahlil etilgan. Ushbu ilmiy izlanishlar muammoning milliy va mintaqaviy kontekstini tushunishda muhim oʻringa ega, shu bilan birga, ularda uyushmaning eʼtiqodiy qarashlari, mafkuraviy va taʼsir koʻrsatish mexanizmlari koʻproq umumiy diniy-ekstremistik jarayonlar doirasida koʻrib chiqilgan boʻlib, uyushmaning oʻziga xos aqidaviy va tashkiliy xususiyatlari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

Uchinchi guruhni islom ulamolari va huquqshunos olimlarning diniy raddiyalari hamda ushbu masalalarga oid qonunchilik masalalariga oid tadqiqotlar tashkil etadi. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va Abdulaziz Mansur⁸ uyushmaning aqidaviy xatolarini birlamchi diniy manbalar asosida tanqidiy baholashgan. M.Rajabova, J.Toshqulov va A. Zakurlayev⁹ esa, ekstremistik va terroristik xususiyatga ega

Century. - Bern: Peter Lang, 2007; Jarmon J. A. The New Era in U.S. National Security: An Introduction to Emerging Threats and Challenges. - Rowman & Littlefield, 2014; Khatib L., Lust E. Taking to the Streets: The Transformation of Arab Activism. - Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2014; Swick, Sarah. From London to Andijan: The rising global influence of Hizb ut-Tahrir among Muslim youth. Muslims and Islam in the Chaotic Modern World: Relations of Muslims among Themselves and with Others. Temple University, Philadelphia, 2005;

⁷ Hasanov A. Islom ekstremizmining gʻoyaviy ildizlari // Jaholatga qarshi maʼrifat – tinchlik va barqarorlik asosi. - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2003; Абдувахитов А. Братья-мусульмане на общественно-политической арене Египта и Сирии в 1928–1963 гг.: дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1990; Бабаджанов Б. Ферганская долина: источник или жертва исламского фундаментализма? // Центральная Азия и Кавказ. – 1999. - № 4 (5); Бабаджанов Б., Муминов А., фон Кюгельген А. Диспуты мусульманских религиозных авторитетов в Центральной Азии в XX веке: критические издания и исследования источников. — Алматы: Дайк-Пресс, 2007; Munavvarov Z., Hasanov A. Islom: hanafiylik va vahhobiylik. –Toshkent: Movarounnahr, 1998; A.Zakurlayev. Gʻoyalar kurashi. – Toshkent: Movarounnahr, 2000; Diniy bagʻrikenglik va mutaassiblik: (yuz savolga-yuz javob) /O.Yusupov. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2013; Hasanboyev Oʻ. Oʻzbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yoʻnalishlari. – Toshkent, 2014; Rahimjonov D. Maʼrifat – tinchlik asosi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2007; Karimov A. Dunyoviylik dahriylik emas yoxud Hizbut-tahrirning daʼvolari xususida mulohazalar. – T.: Toshkent islom universiteti, 2005; Shermuhamedov K. XX-XXI asr boshlarida Misr ijtimoiy-siyosiy hayotida “Musulmon birodarlar” uyushmasining faoliyati. Dinshunoslik fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)... avtoref. – Toshkent, 2021; Islamov Sh. “ISHID” terrorchi tashkilotining axborot xuruji va uni bartaraf etish yoʻllari: tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)... avtoref. – Toshkent, 2020.

⁸ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Din nasixatdir. – T.: Sharq, 2006; Alimov U., Mansur A., Tursun A. “Hizbut-tahrir” fitnasidan ogohlantirish. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.

⁹ Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy muammolari. Yurid.fan. doktori diss... avtoref. – Toshkent, 2002.; Rajabova M.A. Shariatda jinoyat va jazo. – Toshkent: Adolat, 1996; Rajabova M.A. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash muammolari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2003; Toshqulov J. Terrorizmga qarshi kurashning ayrim huquqiy kafolatlari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti 2008; Zakurlayev A. Oʻzbekiston rivojiga tahdid solayotgan gʻayriqonuniy diniy oqim va terrorchilik tashkilotlari. Taraqqiyot, asliyat va mohiyat. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi IIV, 2020.

jinoyatlarning huquqiy tavsifi hamda ularga qarshi kurashning normativ mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rganishga e'tibor qaratganlar.

Mazkur masalalarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'lami keng bo'lib, ular mavzuning ilmiy hamda amaliy jihatlarini yoritishda muayyan hissa qo'shgan. Mavjud izlanishlar "Hizbut-tahrir" tashkiloti g'oyaviy-aqidaviy mafkurasining reaksion mohiyatini mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tizimli va chuqur tahlil qilish ehtiyojini to'liq qondirmaydi. Ayni jihat ushbu muammoni tarixiy, nazariy va amaliy nuqtayi nazardan atroflicha tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu ma'noda, mazkur masala zamonaviy ilmiy izlanishlar doirasida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq FZ – 202002145 "Dinlar tarixi, ta'limoti, manbalari va an'alarini tadqiq etish asosida "Dunyo dinlari" elektron dasturi va mobil ilovasini yaratish" (2021-2023 y.y.) mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Hizbut-tahrir" uyushmasi g'oyaviy-aqidaviy mafkurasining reaksion mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asrda arab dunyosidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va "Hizbut-tahrir"ning yuzaga kelish sabablarini ochib berish;

Taqiyuddin Nabahoniy radikal qarashlarining jamiyatga ta'sirini aniqlash;
tadqiqotlarda uyushma buzg'unchi g'oyalarining reaksion va ular mazmunini yoritishdagi yondashuvlarni aniqlash;

uyushmaning faoliyat usullari va ta'sir vositalarini aniqlash;
tashkilot siyosiy-g'oyaviy mafkurasida davlat tuzilishi, shakli va boshqaruviga oid qarashlar mohiyatini yoritish;

"Hizbut-tahrir" mafkurasidagi fiqhiy asoslarni tanqidiy tahlil qilish;
harakatning mafkuraviy targ'ibotiga qarshi kurashishdagi muammolarni aniqlash;

uyushma radikal g'oyalariga nisbatan mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda xorijiy tajribani o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslarga qarshi kurash chora-tadbirlari samaradorligini oshirish hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Hizbut-tahrir" uyushmasi faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini "Hizbut-tahrir" g'oyaviy-aqidaviy mafkurasi, siyosiy qarashlari, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy obyektivlik tamoyiliga qat'iy rioya qilingan bo'lib, analiz va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy-mantiqiy yondashuv hamda sinergetik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Hizbut-tahrir" targ'ibotida an'anaviy halqa (حلقه) darslari o'rini ijtimoiy tarmoqlardagi platformalar egallab, ijtimoiy-maishiy muammolarga diniy tus berib,

soxta yechimlar orqali fuqarolar ishonchini suiiste'mol qilish va shaxsiy muloqot bosqichida ularga nisbatan "raqamli tuzoq" amaliyoti qo'llanilishi isbotlangan;

uyushmaning ayollar qanoti – "mushrifa" (مشرفة) institutini doimiy takomillashtirish, nikoh va oilaviy rishtalarni mafkuraviy birodarlik vositasiga aylantirish amaliyoti ayollar o'rtasida diniy radikallashtirishni tizimli kengaytirishga qaratilgan o'ziga xos maxsus strategiyasi ekani dalillangan;

harakat reaksion g'oyalarida zamonaviy siyosiy tizimlarni rad etishi va qat'iy shar'iy boshqaruv targ'ibotiga qaratilgan g'oya bilan "jamiyat yuz yildan ortiq davr mobaynida xalifasiz jaholatda yashayapti" degan da'vo asosida uyushma faoliyatiga qarshilarni takfirda ayblayotgani asoslangan;

uyushma g'oyalarini qo'llab-quvvatlovchi shaxslarning oilasi, sobiq a'zolar va malakali mutaxassislar hamkorligida doimiy muloqot, aqidaviy-fiqhiy va siyosiy-huquqiy dalillarga suyangen raddiyalar orqali ularni g'oyasidan qaytarish mexanizmi samarali natija berishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Hizbut-tahrir"ning "xalifalik" atrofida shakllangan siyosiy mafkurasini o'rganish natijasida, ekstremistik g'oyalar tarqalishining asosiy mexanizmlari sifatida halqalar orqali yopiq ta'lim tizimi, "biz va ular" tamoyiliga asoslangan ichki ijtimoiy chegara, Qur'on va hadislarning o'z maqsadlariga muvofiq talqin qilinishi hamda diniy masalalarning siyosiy lashtirilishi aniqlanib, ular ilgari surayotgan xalifalik davlatining ijtimoiy-siyosiy tizimini tahlil qilish asosida mazkur hodisani izohlashga xizmat qiluvchi nazariy-mafkuraviy baza shakllantirilgan;

uyushmaning tashkiliy tuzilmasida maxsus yetakchilar va mushriflarni tayyorlash tizimi mavjud bo'lib, ularning yangi a'zolarini g'oyaviy-aqidaviy jihatdan shakllantirishdagi faol ishtiroki, xalifalik davrining ideallashtirilgan tarixiy modeli hamda "oltin asr" konsepsiyasi orqali hozirgi siyosiy vaziyatdan norozi qatlamlarni jalb qilish usullari, shuningdek, hududiy, ijtimoiy va yosh xususiyatlariga moslashtirilgan g'oyalarni tez tarqatish mexanizmlari ochib berilgan;

tadqiqot davomida O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, "Hizbut-tahrir"ga qarshi kurashishda jazoni ijro etish muassasalaridagi hamda ozodlikka chiqqan "hizbiy"lar va ularning oila a'zolarini g'oyaviy jihatdan sog'lomlashtirish yo'nalishida ijtimoiylashtirish va "qaytaruv guruhlari" tomonidan amalga oshirilayotgan individual va jamoaviy suhbatlar samarali tajriba sifatida baholanib, ularni "O'zbekiston tajribasi" sifatida xalqaro miqyosda eksport qilish imkoniyatlari isbotlangan;

tadqiqotning ilmiy natijalaridan huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda mafkuraviy xavfsizlik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun tayyorlangan – "Zamonaviy terroristik va ekstremistik tashkilotlarning jamiyatga tahdidi", "Jihodchilar ekstremistik oqimining vujudga kelishi: maqsad va vazifalari" hamda "O'quvchilar va yoshlar o'rtasida radikallashtirishning oldini olish" kabi amaliy qo'llanmalar yaratishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi metodologik bazaning yaratilgani, Sharq va G'arb ilmiy maktablarida rivojlangan bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, ilmiy xulosalarni ilgari surishda Qur'on oyatlari, hadislarga tayanilgani, dalillar bilan asoslangani hamda falsafiy,

qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilgani, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning turli oqim va toifalarni o'rganishda yangicha ilmiy yondashuv va tadqiqotlarga asos bo'lishi, oqim vakillari bilan ishlashda ilmiy-nazariy jihatlarni takomillashtirish, yoshlarni jaholat, yot g'oyalardan himoya qilish borasidagi bilim va ko'nikmalarini kuchaytirishda samarali ta'sir etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon etilgan mulohazalar, tahliliy natijalar va xulosalar O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi va Ichki ishlar vazirligi akademiyasida o'qitiladigan "Din niqobidagi tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish asoslari", "Islom va hozirgi zamon", "Axborot iste'moli madaniyati" kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruza matnlari tayyorlashda, shuningdek, mutaassib shaxslar bilan ishlashda tavsiyaviy qo'llanma bo'la olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Hizbut-tahrir" uyushmasi g'oyaviy-aqidaviy mafkurasining reaksiyon mohiyatini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

"Hizbut-tahrir"ning yoshlar ongida radikal kayfiyat va tegishlilik hissini shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik ta'sir mexanizmlari sifatida, bir tomondan, halqa (حلقة) darslari, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan dolzarb mavzular asosida dalildan ko'ra, hissiy ta'sirga tayangan sun'iy bahslarni yuzaga keltirish, bu mavzularga diniy tus berish orqali qiziqish va shubhani kuchaytirish, keyin esa yuqori emotsional holatdagi shaxslarni ajratib olib, ular bilan shaxsiy muloqot asosida g'oyalarni tezkor og'dirish usulidan foydalanilayotganiga oid ilmiy xulosalardan "O'quvchilar va yoshlar orasida radikallashtirishning oldini olish" nomli kitobni chop etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2026- yil 14-martdagi 16/T4-1672-son ma'lumotnomasi). Natijada, kitob huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va tinglovchilari uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

"Hizbut-tahrir"ning zamonaviy siyosiy tizimlarni qat'iy rad etishi, Usmonli xalifaligining tugatilishini shar'iy hukm barham topgan holat sifatida talqin qilishi to'g'risidagi ilmiy xulosalardan "Jihodchilar ekstremistik oqimining vujudga kelishi: maqsad va vazifalari" nomli hammualliflikda chop etilgan kitobda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 30-yanvardagi 3/3-798-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur kitob Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchilari uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

Uyushma doirasida ayollar uchun joriy etilgan lavozimlar orqali ijtimoiy ta'sirni saqlab turish, uyushmaga nisbatan ayollar sadoqatini mustahkamlash, ayollar vositasida oila muhitiga kirib borish va nikoh munosabatlaridan tashkiliy imkoniyat sifatida foydalanish yo'li bilan tarmoqning oilalar kesimida kengayib borayotganidan Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2026-yil 19-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2026-yil II yarim yilligiga mo'ljallangan

rejasi”ning 80-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2026-yil 17-martdagi 02/02-591-son ma’lumotnomasi). Natijada, ayollar orqali oila muhitiga kirib borish va tarmoqni oilalar kesimida kengaytirish xususiyatlari o‘rganilib, shu asosda xotin-qizlar o‘rtasidagi salbiy ijtimoiy holatlarni barvaqt aniqlash hamda mahallalarda manzilli profilaktika choralarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar mexanizmi ishlab chiqilgan;

“Hizbut-tahrir”ning zamonaviy siyosiy tizimlarni qat’iy rad etishi, Muhammad (a.s)dan keyin qiyomatgacha shar’iy boshqaruv uzluksiz davom etishi shart, degan da’vo asosida Usmonli xalifaligining tugatilishini shar’iy hukm barham topgan holat sifatida talqin qilishi asoslangani, shuningdek, Taqiyuddin Nabahoniy shariatda inson omilining har qanday ko‘rinishini inkor etgani sababli, musulmon jamiyatida qadriyat va qoidaga aylangan “istihson”, “maslahat ul-mursala” va “urf” kabi sha’riy manbalarni rad etganligiga oid ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi, O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi o‘rtasida 2025-yil 19-mayda qabul qilingan 4-qq-son Qo‘shma qaror va “Jamiyatda vijdon erkinligini kafolatlash, diniy bag‘rikenglik, fuqarolararo totuvlik hamda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida, “Barqaror jamiyat – barqaror davlat” tamoyili asosida tuzilgan chora-tadbirlar rejasi”ning 5, 7, 8 va 12-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2026-yil 27-apreldagi 02-02/3387-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatda diniy bag‘rikenglik, fuqarolararo totuvlik va ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi tizimli hamkorlik mexanizmini yanada kuchaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola (jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 126 varaqni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hizbut-tahrir” uyushmasi faoliyatini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, uning birinchi bandi *“XX asrda musulmon davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va “Hizbut-tahrir” uyushmasining yuzaga kelish sabablari*” deb atalgan.

XX asr boshlarida musulmon dunyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, avvalo, Usmoniylar imperiyasining zaiflashuvi, Birinchi jahon urushi oqibatlari, mustamlakachilik siyosatining kuchayishi hamda Sayks-Piko kelishuvi asosida mintaqaning qayta taqsimlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Mazkur jarayonlar arab jamiyatlarida milliy o'zlikni anglash, panarabizm va islom uyg'onish g'oyalarining faollashuviga zamin yaratdi. Misr, Suriya, Iroq, Falastin va Iordaniyada kuzatilgan siyosiy beqarorlik, tashqi siyosiy kuchlar ta'sirining ortishi hamda diniy va dunyoviy qarashlar o'rtasidagi keskin tortishuvlar jamiyatda yangi mafkuraviy yo'nalishlar, guruhlarining shakllanishini jadallashtirdi¹⁰. XX asr boshlaridagi vaziyat musulmon jamiyatlarida nafaqat milliy ozodlik harakatlarini, balki islomni siyosiy va ijtimoiy tiklanish omili sifatida talqin qiluvchi yondashuvlarni ham kuchaytirdi.

Shunday tarixiy-siyosiy muhitda *“Musulmon birodarlar”* kabi harakatlar maydonga chiqib, islomni jamiyatni qayta qurish va boshqaruvni yangilashning asosiy g'oyaviy mezoni sifatida ilgari surdi. Keyinchalik yuzaga kelgan g'oyaviy va ichki qarama-qarshiliklar boshqa yo'nalishga ega bo'lgan yangi tuzilmalarning shakllanishiga olib keldi. *“Hizbut-tahrir”* ning paydo bo'lishi diniy faollikning davomi emas, balki musulmon dunyosidagi siyosiy parokandalik, xalifalik institutining tugatilishiga nisbatan javob sifatida vujudga kelgani to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

“Ta'qiyuddin Nabahoniy radikal qarashlarining jamiyatga ta'siri” deb nomlangan ikkinchi bandda T.Nabahoniy shaxsiyati, faoliyati, diniy-siyosiy qarashlarining shakllanish omillari, mazkur qarashlarning jamiyatga ta'siri hamda uyushma g'oyalarining bosqichma-bosqich radikallashtirish jarayoni tahlil qilinadi. T.Nabahoniy shaxsiyatini XX asr o'rtalarida musulmon dunyosida yuzaga kelgan siyosiy va mafkuraviy inqiroz *“Hizbut-tahrir”* asoschisi sifatida shakllantirgan. U 1909-yilda Falastinning Ijzim qishlog'ida tug'ilgan, dastlabki ta'limni oilasida olib, 1932-yilda Al-Azhar universitetini tamomlagan¹¹. Unda radikal dunyoqarashning shakllanishida Falastin ta'lim tizimidagi g'arb ta'siri, sud-huquq tizimidagi faoliyati hamda 1948-yilda Isroil davlatining tashkil topishi ta'sir qildi. Uning 1950-yilda e'lon qilingan asarlarida ummatning tiklanishi faqat islom asosidagi boshqaruv orqali ta'minlanishi ilgari surildi. 1951-yildagi siyosiy muvaffaqiyatsizlikdan so'ng esa u qat'iy mustaqil tashkilot tuzish yo'liga o'tdi. *“Hizbut-tahrir”* ning dastlabki tashkiliy-siyosiy faoliyati 1952-yilda boshlangan bo'lib, ayrim manbalarda 1953-yil ko'rsatilsa-da, tashkilotning amaliy shakllanishini 1952-yildan baholash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Dastlab, varaqalar tarqatish, masjidlardagi targ'ibot, o'zaro muhokamalar va halqa darslari orqali yoyilgan bu harakat keyinchalik ichki intizom, markazlashgan g'oyaviy tizimga tayangan uyushmaga aylandi.

¹⁰ Pırl A. The Formation of Iraqi Nationalism under the British Mandate (1920-1932). - Ankara: Middle East Technical University, 2009. – pp. 12-15.

¹¹ Mukaramxonov N.A. Hizbut-tahrir. –Toshkent: Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi, 2017. – B.5.

T.Nabahoniy qarashlarining jamiyatga ta'siri, eng avvalo, diniy tushunchalarni tarbiya vositasi sifatida emas, balki siyosiy kurash va hokimiyatni qo'lga kiritish vositasi sifatida talqin etilishida namoyon bo'ldi. Tashkilot mafkurasida demokratiya, dunyoviy davlat, konstitutsiyaviy boshqaruv, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik rad qilinib, ular islomga zid tizim sifatida baholandi. "Hizbut-tahrir" o'zini diniy, xayriya yoki ma'rifiy emas, balki islom asosiga qurilgan siyosiy uyushma deb ta'riflab, hokimiyatni egallashni uch bosqichli model – hizbiy uyushmani shakllantirish, jamiyatga g'oyaviy ta'sir o'tkazish, boshqaruvni qo'lga olishni rejalashtirgan. Abdulqadim Zallum va Ato Abu Rushta rahbarligi ostida harakat mintaqaviy va xalqaro miqyosda kengayib, Yaqin Sharq, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo hamda sobiq sovet hududlarida yashirin va ochiq targ'ibot shakllarini qo'lladi¹². T.Nabahoniyning radikal qarashlari jamiyat ichida qonuniy siyosiy institutlarga nisbatan ishonchsizlik, radikal siyosiy ongni shakllantirgan.

Dissertatsiyaning *"Hizbut-tahrir"ning buzg'unchi g'oyalari va ularning mazmuni bo'yicha tadqiqotlar* deb nomlangan uchinchi bandida uyushma g'oyalarining mazmuni va ularning turli tadqiqotlarda yoritilishi qiyosiy-tahliliy asosda ochib beriladi.

Xususan, Z.Baran uyushmaning g'oyaviy asoslari, yoshlar orasidagi jozibadorligi va turli siyosiy-ijtimoiy muhitlarga moslashish imkoniyatlarini tahlil qilib, uning tarqalishini faqat aqidaviy adashish emas, balki siyosiy norozilik va ijtimoiy beqarorlik bilan bog'liq hodisa sifatida talqin etadi¹³. F.Vali esa, "Hizbut-tahrir"dagi radikallasuvni halqa tizimi orqali bosqichma-bosqich singdiriladigan jarayon sifatida izohlaydi. S.Faruqi, V.Ranchinskiy, Ye.Yegorov, A.Pozdnyakov singari mualliflar esa, tashkilotning xalifalik g'oyasi, media strategiyasi, G'arb mamlakatlaridagi moslashuvchan faoliyati va tashkiliy mexanizmlarini tadqiq etishgan. A.Hasanov, A.Zakurlayev, O'.Hasanboyev, K.Shermuhamedov kabi mahalliy mualliflar tomonidan uyushmaning Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston sharoitidagi faoliyat uslublari va jamiyat barqarorligiga tahdidi o'rganilgan bo'lsa, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hamda Abdulaziz Mansur singari ulamolar uning aqidaviy va fiqhiy xatolarini diniy manbalar asosida tanqidiy tahlil qilganlar.

Tadqiqotlar tahliliga ko'ra, "Hizbut-tahrir" diniy shiorlar bilan faoliyat yurituvchi harakat emas, balki diniy tushunchalar orqali siyosiy ong, hokimiyatni egallashga intiluvchi yopiq g'oyaviy tizim sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar orasidagi yondashuvlar turlicha bo'lsa-da, umumiy xulosa – uyushma xalifalik g'oyasi orqali amaldagi siyosiy institutlarni inkor etishdan iborat. Iqtisodiy qiyinchilik, diniy savodsizlik yoki siyosiy norozilik, diniy tushunchalarning siyosiy talqini va muayyan ijtimoiy vaziyatga moslashgan targ'ibot mexanizmlari uyushma g'oyalarining ta'sirchanligini oshiradi. "Hizbut-tahrir"ga qarshi kurash faqat huquqiy taqiqlar bilan cheklanmasdan, uning yaxlit g'oyaviy tizimini anglash, ijtimoiy profilaktikani kuchaytirish, fuqarolarda huquqiy va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bilan uyg'un holda olib borilishi asoslangan.

¹² Karagiannis E. The Activism of Hizb ut-Tahrir. In The New Political Islam: Human Rights, Democracy, and Justice. Pennsylvania: University of Pennsylvania Press, 2018. – pp. 53-73.

¹³ Baran Z. Fighting the War of Ideas // Foreign Affairs. - 2005. -Vol. 84, No. 6. – P. 68.

“**“Hizbut-tahrir” uyushmasi mafkurasining reaksiyon jihatlarini**” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi bandi *“Uyushmaning faoliyat usullari va ta’sir vositalari”* deb nomlangan bo‘lib, unda “Hizbut-tahrir”ning tashkiliy faoliyat yuritish shakllari, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish mexanizmlari hamda jamiyatning turli qatlamlari ongiga kirib borish usullari tahlil qilinadi.

Uyushma o‘zini Qur‘on, hadis va islom manbalariga tayangan holda faoliyat yurituvchi siyosiy uyushma sifatida taqdim etsa-da, amalda u diniy da’vatdan ko‘ra, ko‘proq hokimiyatni qo‘lga kiritish bilan tavsiflanadi¹⁴. Tashkilot musulmonlarni yagona xalifalik asosida birlashtirish g‘oyasini ilgari surib, demokratiya, dunyoviy boshqaruv, milliy davlatchilik qadriyatlarini rad etadi hamda ularni islomga zid tuzum sifatida talqin qiladi. Tashkilotda halqa darslari, bosqichma-bosqich singdiriladigan mafkuraviy ta’lim, qat’iy ichki intizom va markazlashgan boshqaruv alohida o‘rin tutadi. Tashkilotning asosiy maqsadi mavjud davlat tuzilmalarini isloh qilish emas, balki ularni rad etgan holda o‘z talqinidagi siyosiy-huquqiy tuzumni o‘rnatishdan iborat.

Uyushmaning ta’sir vositalari ham ayni shu strategik maqsadga bo‘ysundirilgan bo‘lib, ular orasida: maxfiy aloqa usullari, shifrlangan lug‘at, qat’iy bo‘ysunishga asoslangan ichki tuzilma, bosma va raqamli targ‘ibot kanallari, shuningdek, ayollar va yoshlar bilan ishlash mexanizmlari muhim o‘rin egallaydi. Yangi a’zolar, odatda, yaqin aloqadagi shaxslari orqali jalb qilinadi, keyinchalik esa, halqa tizimi vositasida mafkuraviy jihatdan shakllantiriladi. Maxfiylikni ta’minlash uchun tashkilot ichida ko‘p bosqichli nazorat, cheklangan aloqa va ramziy terminologiyadan foydalaniladi. Tashkilot internet, varaqalar va boshqa kommunikativ vositalar orqali o‘z qarashlarini keng yoyishga intilib, ayniqsa, siyosiy bosim kuchli bo‘lgan hududlarda kiber makondan xavfsiz targ‘ibot vositasi sifatida foydalanadi. Ayollar faoliyatiga alohida e’tibor qaratilishi ham tashkilot manfaatiga bo‘ysundirilgan bo‘lib, ular aniq manzilli targ‘ibotlarga jalb etiladi¹⁵. “Hizbut-tahrir”ning faoliyat usullari va ta’sir vositalari alohida g‘oyaviy-siyosiy mexanizm sifatida baholanishi bayon qilingan.

“Hizbut-tahrir” siyosiy-g‘oyaviy mafkurasida davlat tuzilishi, shakli va boshqaruviga oid qarashlar mohiyati” deb nomlangan ikkinchi badda uyushmaning xalifalik asosidagi davlat modeli, boshqaruv shakli va siyosiy tuzumga oid qarashlarining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.

Uyushma siyosiy-g‘oyaviy mafkurasida davlat tuzilishi, shakli va boshqaruviga oid qarashlar markaziy o‘rin egallab, ular bevosita xalifalik g‘oyasi bilan bog‘lanadi. Tashkilot nazarida xalifalik barcha musulmonlarni yagona siyosiy makonda birlashtiruvchi, xalifa boshqaruvi ostida faoliyat yurituvchi davlat modeli hisoblanadi va aynan shu tuzum orqali musulmon jamiyatlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy muammolarni bartaraf etish mumkin, degan da’vo ilgari suriladi. Uyushma bu modelni tarixiy jihatdan Xulafoi roshidinlar, Umaviylar, Abbosiylar va Usmoniylar davlatchiligi bilan bog‘lab asoslashga urinadi hamda 1924-yilda xalifalikning bekor qilinishini musulmon dunyosidagi siyosiy tarqoqlikning asosiy sababi sifatida talqin

¹⁴ Karimov A. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan norasmiy oqim va guruhlar. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 14.

¹⁵ Rusen C. The Rise and Fall of Turkish Hizb ut-Tahrir// The Challenge of Hizb ut-Tahrir: Deciphering and Combating Radical Islamist Ideology / ed. Baran Z. – Washington, D.C.: The Nixon Center, 2004. – P. 37-40.

qiladi. Uyushma tomonidan kelajakdagi davlat tizimi uchun: boshqaruv shakli, iqtisodiy nizom, ijtimoiy tartib va harbiy tuzilma masalalarini o'z ichiga olgan siyosiy dastur ishlab chiqilgan. Tashkilot davlat boshqaruvini "davlat jihozi" tushunchasi orqali izohlab, xalifani markaziy hokimiyat egasi sifatida ko'rsatadi, unga: muovinnlar, qozilik tizimi, ummat majlisi va jihod amiri kabi bo'g'inlar bo'ysunadi.

Ushbu bandda xalifalik davlatining asosiy ramzlari sifatida "livo" ("لواء") va "pora" ("راية") bayroqlari qo'llanilishi, livo oq rangdagi bayroq bo'lib, unda "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" "اللّٰهُ رَسُوْلٌ مُحَمَّدٌ، اللّٰهُ اِلٰهٌ اِلَّا" kalimasi yozilgani, bu bayroq xalifalik davlatining yuksalishini, diniy va axloqiy qadriyatlarning ustuvorligini ifodalashi, roya esa, qora rangda bo'lib, harbiy harakatlar, jangovar birliklarni namoyish etuvchi bayroqligi, mazkur ramzlar diniy birlikni ta'minlashga xizmat qilishi yoritilgan¹⁶.

II bobning "Uyushma mafkurasidagi fiqhiy asoslarning tanqidiy tahlili" deb nomlangan uchinchi bandida uyushma o'z qarashlarini Qur'on va Sunnatga tayangan holda bayon etishini da'vo qilsa-da, amalda an'anaviy ahli sunna val jamoa tomonidan shakllantirilgan aqidaviy va fiqhiy yondashuvlardan muayyan darajada chekinishi, xususan, ohod hadislarning aqidaviy masalalarda hujjat bo'la olmasligi haqidagi qarashi, qabr azobi, masiyh dajjol, hidoyat va zalolat masalalariga doir talqinlarida mo'tazila va qadariya oqimlaridan ta'sirlangani bayon etilgan. Uyushma ijmoni, asosan, sahobalar davri bilan cheklab, istihson, maslahatul mursala va urfni rad etgan.

Uyushmaning ayrim fatvolari esa, nafaqat diniy tomondan, balki axloq va jamoat qadriyatlari mezonlari bo'yicha ham jiddiy e'tiroz uyg'otadi. Xususan, begona ayol bilan qo'l berib so'rashish yoki uni o'pish, yalang'och tasvirlarni ko'rish, inestga doir jazolarni yengillashtiruvchi yondashuvlar, musulmon bo'lmaganlarning sho'ro majlisiga a'zo bo'lishini joiz deb bilish, namoz va ro'zaning ayrim sharoitlarda soqit bo'lishi haqidagi da'volar islom huquqining asosiy tamoyillari bilan zid keladi. "Hizbut-tahrir" ham o'z g'oyalari maqsadida fiqhiy manbalarni tanlashda, ulardan hukm chiqarishda foydalangani bayon qilingan.

Dissertatsiyaning "Hizbut-tahrir" uyushmasi mafkurasiga qarshi kurashish masalalari" deb nomlangan uchinchi bobning "Hizbut-tahrir" uyushmasi mafkuraviy targ'ibotiga qarshi kurashish borasidagi muammolar" deb nomlangan birinchi bandida mazkur uyushmaning g'oyaviy targ'ibotiga qarshi kurash jarayonida yuzaga kelayotgan tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik murakkabliklar tahlil qilinadi.

"Hizbut-tahrir" mafkuraviy targ'ibotiga qarshi kurashishda muammolar shundaki, u oddiy diniy da'vat guruhi emas, balki islom shiorlaridan foydalangan holda siyosiy maqsadlarni ilgari suruvchi, ichki tuzilmasi va ta'sir mexanizmlari puxta ishlab chiqilgan uyushmadir. Unga qarshi kurashni faqat diniy raddiya, huquqiy taqiq yoki umumiy profilaktik tushuntirish ishlari bilan cheklash yetarli natija bermaydi. Uyushma targ'ibotni bosqichma-bosqich, rejalashtirilgan tizim asosida olib borib, dastlab, ishonchli shaxslarni saralab, ularni g'oyaviy jihatdan tayyorlaydi, keyin esa, jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatish orqali hokimiyatga erishiladi. Bu faoliyat,

سيف الله ح. تحولات مقاومة الشباب: مشهد الموسيقى البديلة والسياسة الإسلامية في إندونيسيا ما بعد الاستبداد: أطروحة دكتوراه في الفلسفة. — 16
جامعة مردوخ، ٢٠٢٢. — ص ٨٩.

dastlab, ochiq zo‘ravonlik yoki huquqbuzarlik shaklida emas, balki “fikriy tarbiya”, “siyosiy ongni oshirish” va “diniy tushunchani to‘g‘rilash” kabi ijobiy ma‘nodagi iboralar orqali namoyon bo‘ladi¹⁷. Uni ilk bosqichda aniqlash, o‘z vaqtida ta‘sir choralarini ko‘rish va huquqiy jihatdan baholash qiyin.

Tashkilotning axborot maydonidagi moslashuvchanligi ham ushbu yo‘nalishdagi muammoni yanada qiyinlashtiradi. Avvallari varaqa, risola va uchrashuvlar orqali olib borilgan targ‘ibot bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalar orqali yashirin va aniq auditoriyaga moslashgan shaklga ega bo‘ldi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar, talabalar va ijtimoiy norozi qatlamlar uchun alohida uslub va mazmunda tayyorlanadigan targ‘ibot materiallari an‘anaviy rasmiy chiqishlarning ta‘sir doirasini cheklab qo‘ymoqda. Uyushma jamiyatdagi real ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni inkor etmay, aksincha, ularni o‘z mafkurasi foydasiga talqin qiladi hamda barcha muammolarga yagona yechim sifatida xalifalik g‘oyasini ilgari surishi bayon qilingan.

“Uyushma g‘oyalariga nisbatan mafkuraviy xavfsizlikni ta‘minlashda xorijiy tajriba” deb nomlangan ikkinchi badda turli davlatlarning “Hizbut-tahrir” g‘oyalariga qarshi mafkuraviy xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi yondashuvlari qiyosiy-tahliliy asosda yoritiladi.

“Hizbut-tahrir” g‘oyalariga nisbatan qarshi kurash bo‘yicha xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mazkur tahdidga qarshi kurash yagona usul yoki faqat bitta vosita bilan samarali natija bermaydi. Uyushmaning islom xalifaligini tiklash haqidagi da‘vosi turli mamlakatlarda mavjud siyosiy tuzumga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirish, diniy tushunchalardan siyosiy maqsadlar yo‘lida foydalanish hamda norozi kayfiyatning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Qirg‘iziston, Tojikiston va Qozog‘iston tajribasida, dastlab, diniy sohadagi bo‘shliq, nazoratning sustligi va malakali diniy kadrlar yetishmasligi radikal g‘oyalarning tarqalishi uchun qulay sharoit yaratgani, keyingi bosqichda esa, taqiq, tezkor nazorat, xavfsizlik choralarini kuchaytirishga ustuvor e‘tibor qaratilgani kuzatiladi. Ozarbayjon va Turkiya misolida esa, diniy sohani davlat nazorati asosida tartibga solish, mo‘tadil diniy ta‘limni kuchaytirish, milliy davlatchilik va vatanparvarlik g‘oyalari izchil singdirish radikal qarashlarning yoyilishini cheklashda muhim omil bo‘lgani ko‘rinadi. Bangladesh va Indoneziya tajribasi esa, uyushmaning, ayniqsa, yoshlar, talabalar va elita qatlam orasidagi g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanishga intilishini, bunga qarshi esa, huquqiy taqiq, ta‘lim tizimidagi islohotlar, mahalliy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik hamda axborot maydonida muqobil manbalarni kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Buyuk Britaniyada uzoq vaqt davomida kuzatuv, siyosiy baholash va cheklash yondashuvi ustun, Saudiya Arabistonida huquqiy jazo, mafkuraviy raddiya va rehabilitatsiya choralarining o‘zaro uyg‘unligi qo‘llanilgan. Ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalari va maxsus rehabilitatsiya markazlari orqali radikal g‘oyalar ta‘siriga tushgan shaxslarni diniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan qayta moslashtirishga qaratilgan ishlar alohida e‘tiborga loyiqligi bayon qilingan.

¹⁷ Syamsul R. Indoctrinating Muslim Youths: Seeking Certainty Through An-Nabhanism // Al-Jami‘ah: Journal of Islamic Studies. 2011. Vol. 49. No. 2. – P. 261-264.

Uchinchi bobning “*O‘zbekiston Respublikasida ekstremistik g‘oyalar ta‘siriga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish*” deb nomlangan uchinchi bandida mamlakatimizda ekstremistik g‘oyalar ta‘siriga tushib qolgan shaxslarga qarshi kurashning huquqiy, profilaktik, ma‘rifiy mexanizmlari va “Qaytaruv guruhleri” faoliyati masalalari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida ekstremistik g‘oyalar ta‘siriga tushib qolgan shaxslarga qarshi kurash chora-tadbirlari samaradorligini oshirish, avvalo, mazkur tahdidning mamlakat hududiga kirib kelish omillarini to‘g‘ri anglash bilan bog‘liq. Ekstremistik qarashlar Sobiq ittifoq davrining so‘nggi bosqichi va mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-mafkuraviy vaziyat, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy himoya mexanizmlarining zaiflashuvi hamda yoshlar orasida g‘oyaviy bo‘shliq ta‘sirida tarqalgan. “Hizbut-tahrir” g‘oyalarining Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududiga kirib kelishi: tashqi aloqalar, xorijda ta‘lim olgan shaxslar va mahalliy vositachilar faoliyati orqali bosqichma-bosqich amalga oshgan. Keyinchalik tashkilot adabiyotlarining noqonuniy olib kirilishi, ularni tarjima qilish, yashirin hujralar va targ‘ibot tarmoqlari orqali tarqatish, shuningdek, ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish niqobi ostida o‘z tarafdorlarini kengaytirishga urinishlar bu jarayonni kuchaytirgani bayon qilingan.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda mafkuraviy xavfsizlikni ta‘minlash vazifasi vijdon erkinligi, ijtimoiylashtirish va sog‘lom fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan bog‘liq holda hal etilmoqda. Milliy huquqiy bazaning bosqichma-bosqich mustahkamlanishi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashga oid qonunlar, farmonlar va strategik hujjatlarning qabul qilinishi ushbu sohada kompleks davlat siyosatini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, amaliyotda faqat jazolashga emas, balki adashib radikal muhit ta‘siriga tushgan shaxslarni to‘g‘ri hayot yo‘liga qaytarish, ularni jamiyatga qayta moslashtirish va sog‘lom ijtimoiy muhitga integratsiya qilishga ustuvor ahamiyat berila boshlandi. “Jaholatga qarshi ma‘rifat” kompleks dasturlar, “Qaytaruv guruh”lari shu yondashuvning amaliy ifodasidir. O‘zbekistonda ekstremistik g‘oyalar ta‘siriga tushgan shaxslarga qarshi kurash samaradorligi jazo va taqiqning o‘zida emas, balki profilaktika, ma‘rifat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va qayta ijtimoiylashtirish choralariining yaxlit tizim sifatida ishlashida namoyon bo‘lib, mazkur tajribani alohida amaliy model sifatida baholash va kelgusida “O‘zbekiston modeli” darajasida ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslash imkonini beradi.

XULOSA

“Hizbut-tahrir” uyushmasi g‘oyaviy-aqidaviy mafkurasining reaksion mohiyati” mavzusidagi dissertatsiya ishi natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

